

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TAKRORNING TASNIFI NAZARIY YONDASHUV

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

TDSHU G‘arb tillari kafedrası dotsenti f.f.d. (DSc)

shakhnozaaskarova2@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20051254>

Takror matn tarkibidagi o‘rni – bir-biriga nisbatan joylashuvi, takrorlanuvchi birliklar komponentlari soni, takrorlanuvchi birliklarning sifatiga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Takrorning yuqorida qayd etilgan belgilariga asoslanib, uning bir necha asosiy turlarini keltirish mumkin:

1) takrorlanuvchi til birliklarining xarakteri – tovush, alohida morfema, so‘z, frazeologizmlar, turg‘un iboralar, morfologik shakllar, leksik bloklar, sintaktik konstruksiyalar takrori;

2) matn tarkibida bir-biriga nisbatan joylashuvi belgisiga ko‘ra kontakt va distant;

3) kompozision vazifalari bo‘yicha anaforik, halqa, epiforik, satr, band (she‘riyat);

4) matnda ikki, uch va ko‘p marta keluvchi takrorlarga;

5) takrorlanuvchi birliklar sifatiga ko‘ra – to‘liq va qisman takrorlarga ajratiladi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra takror tushunchasini aniqlash muhim muammolardan biri hisoblanadi. Hozirga qadar olimlar tomonidan qator tadqiqotlar yaratilganiga qaramay, takrorning aniqlashda umumiy, yagona fikrga kelinmagan. Bir guruh olimlar “takror aloqa birligi sifatida namoyon bo‘lib, uning vazifasi matnda struktur-semantik va kompozision xususiyatlar asosida aniqlanadi”, deya e‘tirof etadilar. M.K.Moren va N.N.Teternikovalar esa “...takror – so‘z yoxud so‘zlar guruhining ongli tasvirlanishi (...povtor – soznatelnoye vosproizvedeniye slova ili gruppy slov)” tarzida ta‘rif berishgan. Mazkur konsepsiyadagi muhim jihat shundan iboratki, takror o‘zida nafaqat so‘z yoki so‘z birikmasi takrorini aks ettiradi, balki bilishning alohida jihatlarini, tasodifan bo‘lmagan holatni shundayligicha aks ettiradi.

Takror barcha so‘z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin, biroq biz ishimizda so‘z turkumi asosida ot bilan ifodalangan takrorlarni tadqiqot ob‘yekti sifatida tanladik. Bunda ot so‘z turkumi asosida ifodalangan takrorning chastotasi, statistik hisob-kitobni amalga oshirishning qulay bo‘lishi, uning boshqa so‘z turkumlari bilan birikish xususiyatlari nazarda tutildi.

D.X. Quvvatovanning o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlariga bag‘ishlangan dissertatsiyasida ta‘kidlanishicha, modernistik ruhda yozilgan dostonlarda nafaqat qofiya va vazn, balki tinish belgilaridan ham voz kechishga urinish mavjud. Tinish belgilaridan voz kechilgan she‘riy satrlarda asov ruh hukmronligi seziladi. Masalan, A.Mahkamning “Ishq” dostonida uchraydigan quyidagi satrlar shu jihatdan e‘tiborni tortadi:

Ey dil menga og‘ir qilding – dillik qilding,

Ey dil meni sag‘ir qib bedillik qilding.

Ey dil nima so‘rding berdim berdim tamom,

<https://e-conference.uz/index.php/gumanitar>

May,2026

Ey dil oxir kimga bandachilik qilding?
Ey dil men «tan taxtasi»dan kechay devdim,
Ey dil tanni taxta birla tilik qilding...

Bunda “ey dil” takrori bir paytning o‘zida ham ritorik murojaat, ham anafora vazifasini ado etmoqda. Biroq shoir deyarli zarur tinish belgilarini qo‘llamagan. Shunga qaramay, undan murojaat mazmunini anglash mumkin. Tadqiqotchining fikrlarini quyidagicha tasdiqlash mumkin: birinchidan, takror nafaqat nasrda qo‘llanadi, balki nazmni ham o‘ziga xos tarzda bezaydi; ikkinchidan, u shaxs va narsalarga murojaat tarzida ham keladi; uchinchidan, yuqorida keltirilgan dostonidagi takrorning ayrim turlari tinish belgilarisiz qo‘llansa ham, ritorik murojaat vazifasida kelmoqda.

A.Mamajonov tomonidan takrorning: 1) anaforik takror; 2) epiforik takror; 3) inforik takror; 4) aralash (doiraviy) takror (anafora, epifora; infora-epifora) tiplari tasnif qilingan.

Til birligi sifatida qadimdan ma’lum bo‘lgan takror ko‘plab tilshunoslarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan. Jumladan, takrorning tarkibiga kiritilgan terminlar *anadiplosis*, *anafora*, *antisipatsiya*, *assonans*, *gaplogiya*, *paralellizm*, *pleonazm*, *reduplikatsiya*, *repriza*, *rifm*, *tavtologiya*, *xiazm*, *epanalepsis*, *epiforalar* I.V.Arnoldning tadqiqotlarida batafsil o‘rganilgan.

Shu sababli takrori ifodalovchi til hodisalari: ing. *alliteration* – o‘zb. *alliteratsiya*, ing. *anadiplosis* – o‘zb. *anadiplosis*, ing. *anaphora* – o‘zb. *anafora*, ing. *anticipation* – o‘zb. *antisipatsiya* ing. *assonance* – o‘zb. *assonans*, ing. *haplogy* – o‘zb. *gaplogiya*, ing. *parallelism* – o‘zb. *paralellizm*, ing. *pleonasm* – o‘zb. *pleonazm*, ing. *reduplication* – o‘zb. *reduplikatsiya*, ing. *reprise* – o‘zb. *repriza*, ing. *tautology* – o‘zb. *tavtologiya*, ing. *chiasmus* – o‘zb. *xiazm*, ing. *epanalepsis* – o‘zb. *epanalepsis*, ing. *epiphore* – o‘zb. *epifora* kabi terminlar izohini keltirib, ularni mukammal tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Demak, bizning nazarimizda takror bilan takroriy so‘z o‘rtasidagi farq quyidagi til omillaridan iborat:

<i>takror so‘zlar</i>	<i>takroriy so‘zlar</i>
1. orasidagi pauza uzunroq bo‘ladi	orasidagi pauza qisqa bo‘ladi;
2. ikki yoki undan ko‘p bor takrorlanib kelishi mumkin	takroriy so‘zlar ikki komponentli bo‘ladi
3. punktuasion jihatdan (yozma nutqda) takror so‘zlar orasiga vergul qo‘yiladi	takroriy so‘zlar orasiga defis qo‘yiladi

Olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, ayrim o‘rinlarda ma’noni kuchaytirish uchun bir so‘z grammatik belgi bilan, keyingi so‘z esa ot shaklida keladi: *somsamisan somsa*. Bunda mahsulotning yuqori sifatli va katta hajmda ekanini ta’kidlash uchun mazkur takrordan foydalaniladi.

<https://e-conference.uz/index.php/gumanitar>

May, 2026

Demak, soʻzlovchi oʻz nutqini tinglovchiga taʼsirchan qilib ifodalashi uchun soʻz yoki iboradan, yo boʻlmasa, gapdan bir marotaba foydalanishning oʻzi kifoya qilmaydi. Soʻz, soʻz birikmasi, gapni ikki yoki undan koʻp bor qaytarish nutqning taʼsirchanligini oshiradi va bu holat takror ifoda usulidan foydalanishga undaydi.

Taʼkidlanganidek, takror maʼnoni kuchaytirish, intensivlik va emosionallik uchun xizmat qiladi. Soʻz maʼnosini kuchaytirishda har bir xalqning madaniyati, urf-odat, maqsad-muddaosi oʻz ifodasini topadi.

Takrorning ham oʻziga xos turlari mavjud boʻlib, ular badiiy matnda soʻz takrori (A), soʻz birikmasi takrori (B), gap takrori (V) tarzida uchraydi. Masalan:

*A. ... this nation, under God, shall have a new birth of freedom and that government of **the people**, by **the people**, for **the people**, shall not perish from the earth.* (Abraham Lincoln in the Gettysburg Address)

Sovuq, sovuq, sovuq, qorongʻu..., – yer qaʼridan kelayotgan tovush ularni hayratga solib, esankiratib qoʻydi (H. Orifiy).

Shu oʻrinda turli tizimli ikki tilning oʻziga xos lingvistik xususiyatiga alohida ahamiyat qaratish lozim. Ingliz tilidagi misolda otga xos xususiyat boʻlmish artikl ham takror kelgan, oʻzbek tilidagi gapda esa artikl mavjud emasligi sababli soʻzning oʻzi takrorlangan.

*B. They **bowed down** to him rather, because he was all of these things, and then again he was all of these things because the town **bowed down**.* - *Their Eyes Were Watching God* (Zora Neale Hurston)

Mening kiyimlarim qani, mening kiyimlarim? Xudo urib, yana Tursun kiyib yurmasin! (Oʻ. Umarbekov)

Mazkur misollarda soʻz birikmasi takrori qoʻllangan. Yana bir muhim jihat shundaki, ingliz tilidagi birikma tarkibida predlogni, oʻzbek tilida esa qaratqichli soʻz birikmasini kuzatishimiz mumkin. Mazkur belgilar ham har ikki tilning oʻziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

*V. **Because I do not hope** to turn again **because I do not hope!*** (T. S. Eliot's "Ash-Wednesday")

Charchab ketdingiz-a, dadasi, charchab ketdingiz! (Oʻ. Umarbekov)

Yuqoridagi misollarda emosional nutqni ifodalaydigan gap takrorlangan. Ingliz tilidagi gapda **not** inkor yuklamasining takrorini koʻramiz. Gap tarkibida inkor maʼnosini ifodalovchi feʼlning boʻlishsizlik shakli **-ma** qoʻshimchasidan foydalanilgan. Yana bir farqli jihat shunda namoyon boʻladiki, ingliz tilida koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasi degan tushuncha mavjud emas. Oʻzbek tilida esa bunday qurilmalar keng qoʻllaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Блох М.Я. Очерки по стилистике современного английского языка. – М.: Из-во литературы на ин. яз., 1975. – С. 67.
2. Амроян И.Ф. Повтор в структуре фольклорного текста (на материале русских, болгарских и чешских сказочных и заговорных текстов): Дисс. д-ра. ... филол. наук. – М., 2006. – С. 402.
3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л.: Просвещение, 1981. – 295 с.

<https://e-conference.uz/index.php/gumanitar>

May,2026

4. Астафьева И.М. Виды стилистических повторов, их природа и стилистическое использование (на материале современного английского языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1964. – 16 с.
5. Блох М.Я. Очерки по стилистике современного английского языка. – М.: Из-во литературы на ин. яз., 1975. – С. 67.
6. Головкина Н.Т. Повтор как стилистические средства различных видов и жанров: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 1964. – 18 с.
7. Громогласова Т.И. Повтор в системно-структурном и антропоцентрическом аспектах: на материале русского и английского молодежного дискурса. Дисс. ... канд. филол. наук. Бийск, 2011. – 216 с.
8. Савченко Л.И. Повтор как стилистическая категория в художественной прозе Ф.М.Достоевского: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2005. – 203 с.
9. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М.: Из-во литературы на ин. яз., 1958. – С. 112. с.
10. Глазырина С.А. Стилистические и текстообразующие функции повтора словообразовательных единиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1993. – С. 12.